

MUHANDISLIK

& IQTISODIYOT

ijtimoiy-iqtisodiy, innovatsion texnik,
fan va ta'limga oid ilmiy-amaliy jurnal

2026-YIL
IYUN/6-SON, II-QISM



Milliy nashrlar

OAK: <https://oak.uz/pages/4802>

05.00.00 - Texnika fanlari

08.00.00 - Iqtisodiyot fanlar



Google Scholar

OPEN ACCESS

ULRICHSWEB™
GLOBAL SERIALS DIRECTORY

Academic Resource Index
ResearchBib

ISSN INTERNATIONAL STANDARD SERIAL NUMBER INTERNATIONAL CENTRE

CYBERLENINKA

OpenAIRE

ROAD

INDEX COPERNICUS INTERNATIONAL

BASE

Crossref

НАУЧНАЯ ЭЛЕКТРОННАЯ БИБЛИОТЕКА LIBRARY.RU



ISSN: 3060-463X

РЭУ.РФ
РОССИЙСКИЙ ЭКОНОМИЧЕСКИЙ УНИВЕРСИТЕТ
ИМЕНИ Г.В. ПЛЕХАНОВА
ТАШКЕНТСКИЙ ФИЛИАЛ



muhandislik **& iqtisodiyot**

ijtimoiy-iqtisodiy, innovatsion texnik,
fan va ta'limga oid ilmiy-amaliy jurnal

Elektron nashr, 2026-yil, iyun.

Bosh muharrir:

Zokirova Nodira Kalandarovna, iqtisodiyot fanlari doktori, DSc, professor

Bosh muharrir o'rinbosari:

Shakarov Zafar G'afrovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori, PhD, dotsent

Tahrir hay'ati:

Abduraxmanov Kalendar Xodjayevich, O'z FA akademigi, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Sharipov Kongratbay Avezimbetovich, texnika fanlari doktori, professor

Maxkamov Baxtiyor Shuxratovich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Abduraxmanova Gulnora Kalandarovna, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Shaumarov Said Sanatovich, texnika fanlari doktori, professor

Turayev Bahodir Xatamovich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Nasimov Dilmurod Abdulloyevich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Allayeva Gulchexra Jalgasovna, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Arabov Nurali Uralovich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Maxmudov Odiljon Xolmirzayevich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Xamrayeva Sayyora Nasimovna, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Bobonazarova Jamila Xolmurodovna, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Irmatova Aziza Baxromovna, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Bo'taboyev Mahammadjon To'ychiyevich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Shamshiyeva Nargizaxon Nosirxuja kizi, iqtisodiyot fanlari doktori, professor,

Xolmuxamedov Muhsinjon Murodullayevich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

Xodjayeva Nodiraxon Abdurashidovna, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

Amanov Otabek Amankulovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

Toxirov Jaloliddin Ochil o'g'li, texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Qurbonov Samandar Pulatovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Zikriyoyev Aziz Sadulloyevich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Tabayev Azamat Zaripbayevich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Sxay Lana Aleksandrovna, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

Ismoilova Gulnora Fayzullayevna, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

Djumaniyazov Umrbek Ilxamovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

Kasimova Nargiza Sabitdjanovna, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

Kalanova Moxigul Baxritdinovna, dotsent

Ashurzoda Luiza Muxtarovna, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Sharipov Sardor Begmaxmat o'g'li, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Tursunov Ulug'bek Sativoldiyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), dotsent

Bauyetdinov Majit Janizaqovich, Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti dotsenti, PhD

Botirov Bozorbek Musurmon o'g'li, Texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Sultonov Shavkatjon Abdullayevich, Kimyo fanlari doktori, (DSc)

Jo'raeva Malohat Muhammadovna, filologiya fanlari doktori (DSc), professor.

Yusupov Maxamadamin Abduxamidovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi (DSc), professor

Kalonova Moxigul Baxritdinovna, iqtisodiyot fanlari nomzodi (PhD), dotsent

Mirzayev Kulmamat Djanzakovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi (DSc), professor.

Karimova Nilufar Sadirdin qizi, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Norboyev Odil Abrayevich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

Nasimov Dilmurod Abdulloyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor

Mirzayev Kulmamat Djanzakovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor

Karimova Nilufar Sadirdin qizi, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Pardaev Umidjon Uralovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor

Xolmirzayev Ulug'bek Abdulazizovich, Iqtisodiyot fanlari doktori (DSc)

muhandislik & iqtisodiyot

ijtimoiy-iqtisodiy, innovatsion texnik,
fan va ta'limga oid ilmiy-amaliy jurnal

- 05.01.00 – Axborot texnologiyalari, boshqaruv va kompyuter grafikasi
05.01.01 – Muhandislik geometriyasi va kompyuter grafikasi. Audio va video texnologiyalari
05.01.02 – Tizimli tahlil, boshqaruv va axborotni qayta ishlash
05.01.03 – Informatikaning nazariy asoslari
05.01.04 – Hisoblash mashinalari, majmualari va kompyuter tarmoqlarining matematik va dasturiy ta'minoti
05.01.05 – Axborotlarni himoyalash usullari va tizimlari. Axborot xavfsizligi
05.01.06 – Hisoblash texnikasi va boshqaruv tizimlarining elementlari va qurilmalari
05.01.07 – Matematik modellashtirish
05.01.11 – Raqamli texnologiyalar va sun'iy intellekt
05.02.00 – Mashinasozlik va mashinashunoslik
05.02.08 – Yer usti majmualari va uchish apparatlari
05.03.02 – Metrologiya va metrologiya ta'minoti
05.04.01 – Telekommunikatsiya va kompyuter tizimlari, telekommunikatsiya tarmoqlari va qurilmalari. Axborotlarni taqsimlash
05.05.03 – Yorug'lik texnikasi. Maxsus yoritish texnologiyasi
05.05.05 – Issiqlik texnikasining nazariy asoslari
05.05.06 – Qayta tiklanadigan energiya turlari asosidagi energiya qurilmalari
05.06.01 – To'qimachilik va yengil sanoat ishlab chiqarishlari materialshunosligi
05.08.03 – Temir yo'l transportini ishlatish
05.08.06 – "G'ildirakli va gusenisali mashinalar va ularni ishlatish" (texnika fanlari)
05.09.01 – Qurilish konstruksiyalari, bino va inshootlar
05.09.04 – Suv ta'minoti. Kanalizatsiya. Suv havzalarini muhofazalovchi qurilish tizimlari
10.00.06 – Qiyosiy adabiyotshunoslik, chog'ishtirma tilshunoslik va tarjimashunoslik
10.00.04 – Yevropa, Amerika va Avstraliya xalqlari tili va adabiyoti
08.00.01 – Iqtisodiyot nazariyasi
08.00.02 – Makroiqtisodiyot
08.00.03 – Sanoat iqtisodiyoti
08.00.04 – Qishloq xo'jaligi iqtisodiyoti
08.00.05 – Xizmat ko'rsatish tarmoqlari iqtisodiyoti
08.00.06 – Ekonometrika va statistika
08.00.07 – Moliya, pul muomalasi va kredit
08.00.08 – Buxgalteriya hisobi, iqtisodiy tahlil va audit
08.00.09 – Jahon iqtisodiyoti
08.00.10 – Demografiya. Mehnat iqtisodiyoti
08.00.11 – Marketing
08.00.12 – Mintaqaviy iqtisodiyot
08.00.13 – Menejment
08.00.14 – Iqtisodiyotda axborot tizimlari va texnologiyalari
08.00.15 – Tadbirkorlik va kichik biznes iqtisodiyoti
08.00.16 – Raqamli iqtisodiyot va xalqaro raqamli integratsiya
08.00.17 – Turizm va mehmonxona faoliyati

Ma'lumot uchun, OAK

Rayosatining 2024-yil 28-avgustdagi 360/5-son qarori bilan "Dissertatsiyalar asosiy ilmiy natijalarini chop etishga tavsiya etilgan milliy ilmiy nashrlar ro'yxati"ga texnika va iqtisodiyot fanlari bo'yicha "Muhandislik va iqtisodiyot" jurnali ro'yxatga kiritilgan.

Muassis: "Tadbirkor va ishbilarmon" MChJ

Hamkorlarimiz:

1. Toshkent shahridagi G.V.Plexanov nomidagi Rossiya iqtisodiyot universiteti
2. Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti
3. Toshkent irrigatsiya va qishloq xo'jaligini mexanizatsiyalash muhandislari instituti" milliy tadqiqot universiteti
4. Islom Karimov nomidagi Toshkent davlat texnika universiteti
5. Muhammad al-Xorazmiy nomidagi Toshkent axborot texnologiyalari universiteti
6. Toshkent davlat transport universiteti
7. Toshkent arxitektura-qurilish universiteti
8. Toshkent kimyo-texnologiya universiteti
9. Jizzax politexnika instituti



MUNDARIJA

XO'JALIK YURITUVCHI SUBYEKTLARNING LIKVIDLILIGINI TA'MINLASH MASALALARI.....	10
Bauyetdinov M.J.	
O'ZBEKISTON RESPUBLIKASIDA OLIY TA'LIM TIZIMINI MODERNIZATSIYA QILISH STRATEGIYASI.....	18
Usmanova Zumrad Islamovna, Xasanova Yulduz Kayumovna	
TOKLI O'TKAZGICHLARDA MAGNIT MAYDON INDUKSIYASINING NAZARIY TAHLILI	23
O'ngboyev Anvar, Umarov Uyg'un, Dusiyorov Jaxongir, Jonimqulov Mirtemur	
QISHLOQ XO'JALIGIDA SUV RESURSLARINI BOSHQARISHNING INNOVATSION MEXANIZMLARINI TAKOMILLASHTIRISH.....	30
Akbarova Shaxnoza Yakub qizi	
IQLIM O'ZGARISHI SHAROITIDA ASALARICHILIK TARMOG'I SAMARADORLIGINI OSHIRISHDA DAVLAT QO'LLAB-QUVVATLASH MEXANIZMLARINI TAKOMILLASHTIRISH.....	33
Farmanov Jonibek Ziyadullayevich	
BILVOSITA SOLIQLARNI MA'MURIY BOSHQARISH TIZIMINI TAKOMILLASHTIRISH YO'NALISHLARI	38
Mansurova Arofatxon Shavkat qizi	
BANKLARNING MOLIYAVIY BARQARORLIGINI XALQARO USULLAR VA MEZONLAR ASOSIDA BAHOLASHNI TAKOMILLASHTIRISH.....	43
G'aybulloyev Suxrob Odil o'g'li	
IDEMPOTENT O'LCHOVLAR SIMPLEKSIDA ANIQLANGAN CHIZIQLI OPERATORLAR DINAMIKASINING EKOLOGIK MODELLASHTIRISHDAGI TATBIQI	50
Karimov Muzaffar Musaxonovich, Karimova Shalola Musayevna	
BANKLARARO LIKVIDLILIKNI BOSHQARISHDA SUN'IY INTELLEKT VA BIG DATA TEXNOLOGIYALARINI QO'LLASH ISTIQBOLLARI	56
Baxromov Nodirjon Muxammadamin o'g'li	
BANKLARDA RAQAMLI TEXNOLOGIYALAR ASOSIDA XIZMAT KO'RSATISH SIFATINI OSHIRISH	60
Asemova Rano Japbarbergenovna	
ПРОГНОЗИРОВАНИЕ ПОКАЗАТЕЛЕЙ ПРОДОВОЛЬСТВЕННОЙ БЕЗОПАСНОСТИ РЕСПУБЛИКИ УЗБЕКИСТАН НА ОСНОВЕ СЦЕНАРНОГО АНАЛИЗА РАЗВИТИЯ АПК.....	66
Ли Марина Рудольфовна	
POLIMER VA UGLEROD NANOTOLALI MODIFIKATORLAR ASOSIDA BITUM KOMPOZITSIYALARINING REOLOGIK, MIKROTUZILMAVIY VA ADGEZION XOSSALARINI TAKOMILLASHTIRISHNING QIYOSIY TAHLILI	70
Hasanov Bahrom Bo'ronovich	
XORIJIY TADBIRKORLIK RIVOJLANISHIGA XALQARO IQTISODIY INTEGRATSIYANING TA'SIRI.....	76
Mamatraimov Islom Mamanazarovich	
SULFIDLI POLIMETALL RUDALARNI SELEKTIV FLOTATSIYALASHDA YANGI AVLOD REAGENTLARINI QO'LLASHNING TEXNOLOGIK YECHIMLARI TAHLILI.....	79
Xushvaqtova Zamira Hikmatulloyevna, Saidaxmedov Aktam Abdisamiyevich	
LOGICLABUZ: A BROWSER-NATIVE CO-SIMULATION PLATFORM FOR THE VIRTUALIZATION OF MULTI-MCU ROBOTIC SYSTEMS	84
Ergashev Adizbek Kamol ugli	
DUBAY IQTISODIYOTINING DIVERSIFIKATSIYALASHUV BOSQICHLARI VA UNDAN O'ZBEKISTONDA FOYDALANISH IMKONIYATLARI.....	94
Dilmira Abdumalikovna Shamusarova	
MINTAQADA TIBBIY TURIZMNI RIVOJLANTIRISHNING XALQARO MODELLARI.....	99
Yusupova Mehrigon O'ktamovna	
EKONOMETRIK MODELLARNI TANLASH VA ULARNING SIFATINI BAHOLASHDA INTEGRAL MEZONNI QO'LLASH	104
Turayev Baxtiyor Ergashevich	



PHP VA SUN'YI INTELLEKT SINERGIYASI: LARAVEL ASOSIDA INTELLEKTUAL VEB-TIZIMLARNI LOYIHALASH ARXITEKTURASI.....	110
Jo'rayev To'xtasin, Abdusattarov Odiljon, Boymatov Mexrojiddin, Temirova Orifa, Yuldashboyev Shermuxammad	
CORPORATE GOVERNANCE QUALITY, FOREIGN DIRECT INVESTMENT, AND ECONOMIC GROWTH: A PANEL ECONOMETRIC ANALYSIS OF CENTRAL ASIAN COUNTRIES (2003–2024).....	119
Yusufjon Pulatov	
TIJORAT BANKLARI KREDIT PORTFELINI DIVERSIFIKATSIYA QILISH VA KREDIT RISKLARINI BOSHQARISHNI TAKOMILLASHTIRISH YO'NALISHLARI.....	129
Sheraliyev Olimjon O'ktam o'g'li	
МЕХАНИЗМ УСТОЙЧИВОГО РАЗВИТИЯ КРУПНЫХ ПРОМЫШЛЕННЫХ ПРЕДПРИЯТИЙ В НАЦИОНАЛЬНОЙ ЭКОНОМИКЕ.....	135
T.T. Жураев	
XORAZM VILOYATIDA KICHIK BIZNES VA XUSUSIY TADBIRKORLIKNI RIVOJLANTIRISH ASOSIDA HUDUDIY BANDLIKNI KENGAYTIRISH MEKANIZMLARI	140
Azadova Gulnoza Sardorbekovna	
YASHIL IQTISODIYOT, RESURS SAMARADORLIGI, TABIIY KAPITAL, AYLANMA IQTISODIYOT, EKOLOGIK SAMARADORLIK VA INKLYUZIV O'SISH TUSHUNCHALARINING ILMIY EVOLYUTSIYASI TAHLILI	146
Karimov Islombek Bekpo'lat o'g'li	
РОЛЬ АЛГОРИТМОВ В ПРОЦЕССЕ ПРИНЯТИЯ ИНВЕСТИЦИОННЫХ РЕШЕНИЙ НА СОВРЕМЕННЫХ РЫНКАХ КАПИТАЛА	153
Алиева Сусанна Сейрановна	
РОЛЬ АЛГОРИТМОВ В ПРОЦЕССЕ ПРИНЯТИЯ ИНВЕСТИЦИОННЫХ РЕШЕНИЙ НА СОВРЕМЕННЫХ РЫНКАХ КАПИТАЛА	153
Алиева Сусанна Сейрановна	
BUXORO VILOYATIDA ERKIN IQTISODIY ZONALAR FAOLIYATI VA ASOSIY KO'RSATKICHLARI TAHLILI.....	160
Ibragimov Aziz Turayevich	
ALOQA XIZMATLARINI KO'RSATUVCHI SUBYEKTLARDA SOLIQLAR HISOBINI TAKOMILLASHTIRISH	168
Shirinov Uchqun, Bahodirova Madinabonu	
TA'LIM XIZMATLARI EKSPORTINI RIVOJLANTIRISHGA TA'SIR ETUVCHI OMILLARNING SWOT VA OMILLI TAHLILI.....	176
Alimova Shamsiya Abidovna	
ВЫЗОВЫ РАЗВИВАЮЩИХСЯ РЫНКОВ: ИНФРАСТРУКТУРНАЯ МОДЕРНИЗАЦИЯ, ЧЕЛОВЕЧЕСКИЙ КАПИТАЛ И ЦИФРОВАЯ ТРАНСФОРМАЦИЯ.....	182
Умарова Шахноза Акбаровна	
YASHIL IQTISODIYOT SHAROITIDA QUYOSH ENERGIYASIGA ASOSLANGAN YOMG'IRLATIB SUG'ORISH TIZIMINING IQTISODIY-EKOLOGIK SAMARADORLIGINI BAHOLASH.....	190
Nurmetova Muyassar Jumanazarovna	
TIJORAT BANKLARI KREDITLARINING DAROMADLILIGINI OSHIRISH YO'LLARI.....	200
Ulug'bek Abraxmatov	
ZAMONAVIY TELEKOMMUNIKATSIYA TARMOQLARIDA TRAFIK TURLARINING XUSUSIYATLARI VA ULARNING XIZMAT KO'RSATISH SIFATIGA TA'SIRI.....	204
Abdujapparova M.B., Mirxosilov M.M.	
TURIZMNI MINTAQAVIY RIVOJLANTIRISHDA KLASTERLASH MODELINING TAMOYILLARI VA TARKIBIY ELEMENTLARI	209
Abduxamidov Sarvar Adxamovich	
DIGITAL TECHNOLOGIES AND FOOD SECURITY IN DEVELOPED COUNTRIES	214
Rakhmatova Mukhlisa Dilshod qizi	

TIJORAT BANKLARI KREDITLARINING DAROMADLILIGINI OSHIRISH YO‘LLARI

Ulug‘bek Abraxmatov

Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti
Bank ishi kafedrasida mustaqil izlanuvchisi

Annotatsiya. Ushbu maqolada tijorat banklari kreditlarining daromadliligini oshirish masalalari “Asakabank” AJ misolida tahlil qilingan. Tadqiqotda kreditlardan olinadigan foizli daromadlarning bank daromad bazasini shakllantirishdagi o‘rni, kredit portfeli sifati va tasniflangan kreditlar tarkibining bank faoliyati samaradorligiga ta‘siri o‘rganilgan. 2020–2024-yillar ma‘lumotlari asosida korxonalariga ajratilgan kreditlar hajmi, ularning daromadlilik darajasi hamda standart, substandart, qoniqarsiz, shubhali va umidsiz kreditlar ulushidagi o‘zgarishlar baholangan. Tahlil natijalari kreditlar daromadliligini oshirishda kredit portfeli sifatini yaxshilash, kredit risklarini samarali boshqarish, zaxira ajratmalari darajasini maqbullashtirish va kredit monitoringini kuchaytirish muhim ahamiyatga ega ekanligini ko‘rsatadi. Maqolada tijorat banklari kreditlarining daromadliligini oshirishga qaratilgan ilmiy-amaliy takliflar ishlab chiqilgan.

Kalit so‘zlar: tijorat banki, kredit portfeli, kredit daromadliligi, foizli daromad, kredit riski, tasniflangan kreditlar, zaxira ajratmalari, bank aktivlari.

Abstract. This article examines the ways to increase the profitability of commercial bank loans using the case of Asakabank JSC. The study analyzes the role of interest income from loans in forming the bank’s income base, as well as the impact of credit portfolio quality and the structure of classified loans on banking efficiency. Based on data for 2020–2024, the article evaluates the volume of loans issued to enterprises, their profitability level, and changes in the share of standard, substandard, unsatisfactory, doubtful and loss loans. The results show that improving loan profitability largely depends on enhancing the quality of the credit portfolio, effective credit risk management, optimization of loan-loss provisions and strengthening of credit monitoring. The article develops scientific and practical recommendations aimed at increasing the profitability of lending operations in commercial banks.

Keywords: commercial bank, credit portfolio, loan profitability, interest income, credit risk, classified loans, loan-loss provisions, bank assets.

Аннотация. В данной статье рассматриваются вопросы повышения доходности кредитов коммерческих банков на примере АО «Асакабанк». В исследовании проанализирована роль процентных доходов по кредитам в формировании доходной базы банка, а также влияние качества кредитного портфеля и структуры классифицированных кредитов на эффективность банковской деятельности. На основе данных за 2020–2024 годы изучены объемы кредитов, предоставленных предприятиям, уровень их доходности, а также изменения в доле стандартных, субстандартных, неудовлетворительных, сомнительных и безнадежных кредитов. Результаты анализа показывают, что повышение доходности кредитов во многом зависит от улучшения качества кредитного портфеля, эффективного управления кредитными рисками, оптимизации уровня резервных отчислений и усиления кредитного мониторинга. В статье разработаны научно-практические предложения, направленные на повышение доходности кредитных операций коммерческих банков.

Ключевые слова: коммерческий банк, кредитный портфель, доходность кредитов, процентный доход, кредитный риск, классифицированные кредиты, резервные отчисления, банковские активы.

KIRISH

Kreditlardan olingan daromadlar tijorat banklarining daromad bazasini shakllantirishda muhim o‘rin tutadi, chunki kreditlar ularning aktivlari tarkibida yuqori salmoqni egallaydi. O‘z navbatida, kreditlarning daromadlilik darajasining o‘zgarishi bevosita bank kredit portfeli sifatining o‘zgarishiga bog‘liq. Shu sababli, kredit portfelining sifat ko‘rsatkichlarini tahlil qilish kreditlarning daromadliligini oshirish bilan bog‘liq muammolarni aniqlash imkonini beradi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 12-maydagi “2020–2025-yillarga mo‘ljallangan O‘zbekiston Respublikasining bank tizimini isloh qilish strategiyasi to‘g‘risida”gi PF-5992-son Farmoniga muvofiq, kreditlashni faqat bozor shartlari asosida amalga oshirish, kredit portfeli va tavakkalchiliklarni boshqarish sifatini yaxshilash, kreditlash hajmlarining mo‘tadil o‘sishiga amal qilish mamlakat bank tizimini isloh qilishning asosiy yo‘nalishlari hisoblanadi [1]. Mazkur yo‘nalishlar doirasida belgilangan vazifalar ijrosini ta‘minlash tijorat banklari kredit portfelining sifatini ta‘minlash bilan bog‘liq muammolarni, jumladan, kreditlar



bo'yicha muddati o'tgan qarzdorlik darajasining nisbatan yuqoriligi, kreditlarning daromadlilik darajasini oshirish zarurati, banklar resurs bazasini mustahkamlash zarurati va boshqa masalalarni hal qilish yo'llarini ishlab chiqishni taqozo etadi. Bu esa, o'z navbatida, kredit portfelining muhim sifat ko'rsatkichi bo'lgan kreditlarning daromadlilikini ta'minlash masalasini ilmiy jihatdan tadqiq qilish zaruriyatini yuzaga keltiradi.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Tijorat banklari kreditlarining daromadlilikigi, kredit portfeli sifati va bank risklarini boshqarish masalalari iqtisodiy adabiyotlarda keng tadqiq qilingan. Xususan, J. Sinki tijorat banklarida moliyaviy menejment, aktivlar va passivlarni boshqarish, foizli marja hamda bank daromadlilikini ta'minlash masalalarini atroflicha yoritgan [2]. V.M. Usoskin esa zamonaviy tijorat banklari faoliyatida kredit operatsiyalari, bank aktivlari tarkibi va kredit risklarini boshqarishning amaliy jihatlariga alohida e'tibor qaratgan [3].

N.I. Valenseva bank xizmatlari bozorida narx shakllanishi, foiz stavkalari va bank mahsulotlari tannarxi o'rtasidagi bog'liqlikni tadqiq etgan bo'lib, bu yondashuv kreditlar daromadlilikini oshirishda foizli marja va spread ko'rsatkichlarining ahamiyatini ochib beradi [4]. Xesus Uerto de Soto bank krediti, pul muomalasi va iqtisodiy sikllar o'rtasidagi bog'liqlikni tahlil qilib, kredit kengayishi va bank tizimi barqarorligi masalalariga e'tibor qaratgan [5].

Kredit risklari va defolt ehtimolini baholash masalalari Lando va Skodeberg, Tasche, Wei va Yuan kabi olimlarning tadqiqotlarida chuqur o'rganilgan. Ularning ilmiy ishlarida reyting o'zgarishlari, defolt ehtimoli, kreditlar bo'yicha yo'qotishlar va past defoltli portfellarda risklarni baholash metodlari tahlil qilingan [8; 9; 10]. Mian, Rao va Sufi uy xo'jaliklari qarzdorligi, iste'mol va iqtisodiy pasayish o'rtasidagi bog'liqlikni o'rganib, aholiga berilgan kreditlar bo'yicha risklarni baholashda muhim nazariy asoslarni shakllantirgan [7].

O'zbekistonlik tadqiqotchilardan J.Ya. Isakov xizmat ko'rsatish sohasini rivojlantirishda kredit samaradorligini oshirish masalalarini tadqiq etgan [11]. Mavjud ilmiy adabiyotlar tahlili shuni ko'rsatadiki, tijorat banklari kreditlarining daromadlilikini oshirish masalasi kredit portfeli sifati, foizli marja, kredit riski, zaxira ajratmalari va bank aktivlari tarkibini kompleks tahlil qilishni talab etadi.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Mazkur tadqiqotda tijorat banklari kreditlarining daromadlilikini baholashda iqtisodiy-statistik tahlil, taqqoslama tahlil, dinamik tahlil va tarkibiy tahlil usullaridan foydalanildi. Tadqiqot obyekti sifatida "Asakabank" AJning kredit portfeli tanlandi. Tahlil jarayonida 2020–2024-yillar davomida bank tomonidan korxonalariga ajratilgan kreditlar hajmi, ularning daromadlilik darajasi hamda tasniflangan kreditlar tarkibi o'rganildi.

Tadqiqotda kreditlar daromadlilikigi bank kredit portfelining muhim sifat ko'rsatkichi sifatida baholandi. Shuningdek, standart, substandart, qoniqarsiz, shubhali va umidsiz kreditlarning tasniflangan kreditlar tarkibidagi ulushi tahlil qilindi. Mazkur ko'rsatkichlar asosida kredit portfeli sifati va kreditlar daromadlilikigi o'rtasidagi bog'liqlik aniqlashga harakat qilindi.

Tahlil davomida 2020–2024-yillardagi ko'rsatkichlarning o'zgarish dinamikasi, kreditlar hajmi va ularning daromadlilik darajasi o'rtasidagi nisbat, shuningdek, tasniflangan kreditlar tarkibidagi ijobiy va salbiy siljishlar baholandi. Ushbu metodologik yondashuv tijorat banklari kreditlarining daromadlilikini oshirishga qaratilgan ilmiy-amaliy takliflarni ishlab chiqish imkonini beradi.

TAHLIL VA NATIJALAR

Kreditlarning daromadlilikigi tijorat banklari kredit portfelining sifatini tavsiflovchi muhim ko'rsatkichlardan biri hisoblanadi. O'z navbatida, kreditlar daromadlilikining barqarorligini ta'minlash kredit portfelini boshqarish sifatini oshirishni taqozo qiladi.

Biz quyida "Asakabank" AJ misolida tijorat banklari kreditlarining daromadlilikiga baho beramiz.

1-jadval

“Asakabank” AJda 2020–2024-yillarda korxonalariga berilgan kreditlar hajmi va ularning daromadlilik darajasi¹

Ko'rsatkichlar	2020-yil	2021-yil	2022-yil	2023-yil	2024-yil
Korxonalariga berilgan kreditlar miqdori, mlrd. so'm	23 279	26 615	36741,7	39213,3	38717,3
Korxonalariga berilgan kreditlarning daromadlilik darajasi, %	7,0	8,0	8,9	7,6	9,1

1-jadvalda keltirilgan ma'lumotlardan ko'rinadiki, “Asakabank” AJ tomonidan korxonalariga ajratilgan kreditlar hajmi 2020–2023-yillarda o'sish tendensiyasiga ega bo'lgan. Xususan, kreditlar hajmi 2020-yildagi 23 279 mlrd so'mdan 2023-yilda 39 213,3 mlrd so'mga yetgan. Biroq 2024-yilda ushbu ko'rsatkich 38 717,3 mlrd so'mni tashkil etib, 2023-yilga nisbatan biroz kamaygan. Kreditlarning daromadlilik darajasi esa 2020-yildagi 7,0 foizdan 2024-yilda 9,1 foizga yetib, 2,1 foiz punktga oshgan.

Qayd etish joizki, tijorat banklari kredit portfelining sifatini tavsiflovchi muhim ko'rsatkichlardan biri — bu tasniflangan kreditlarning tarkibidir.

2-jadval

AT «Asakabank» tasniflangan kreditlarining tarkibi²

Ko'rsatkich nomi	2020-yil	2021-yil	2022-yil	2023-yil	2024-yil
Standart kreditlar	86,91	92,03	85,95	84,7	83,1
Substandart kreditlar	9,84	3,14	9,40	8,63	9,13
Qoniqarsiz kreditlar	0,67	3,19	2,66	3,74	4,17
Shubhali kreditlar	1,04	0,81	1,33	2,40	2,99
Umidsiz kreditlar	1,54	0,83	0,66	0,53	0,61
Jami	100,0	100,0	100,0	100,0	100,0

2-jadval ma'lumotlaridan ko'rinadiki, 2020–2024-yillarda “Asakabank” AJ tasniflangan kreditlari tarkibida ayrim noqulay o'zgarishlar kuzatilgan. Jumladan, standart kreditlar ulushi 86,91 foizdan 83,1 foizga pasaygan. Shu bilan birga, qoniqarsiz kreditlar ulushi 0,67 foizdan 4,17 foizga, shubhali kreditlar ulushi esa 1,04 foizdan 2,99 foizga oshgan. Bu holat kredit portfeli sifatini yaxshilash, kredit monitoringini kuchaytirish va kredit risklarini boshqarish mexanizmlarini takomillashtirish zarurligini ko'rsatadi.

Ilmiy maqolani yozish jarayonida tijorat banklari kreditlarining daromadlilikini ta'minlash bilan bog'liq bo'lgan quyidagi xulosalarni shakllantirdik:

kreditlarning daromadlilikini ta'minlashda kreditlar bo'yicha sof yo'qotishlarning jami kreditlarga nisbatan darajasining o'zgarishi muhim o'rin tutadi;

kreditlar bo'yicha foiz stavkasini foizli marja hisobidan pasaytirish imkoniyati bank mahsulotlari tannarxining pasayishi bilan belgilanadi va bunda foizli spred miqdorining umumiy quyi chegarasi bo'lib yetarli darajadagi foizli marja hisoblanadi;

uy xo'jaliklarining o'z risklarini nazorat qilish imkoniyatlari firmalarnikiga qaraganda sezilarli darajada cheklanganligi ularga berilgan kreditlarning o'z vaqtida qaytmaslik ehtimolini oshiradi.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Fikrimizcha, respublikamiz tijorat banklari kreditlarining daromadlilikini oshirish uchun quyidagi tadbirlarni amalga oshirish maqsadga muvofiqdir:

Tijorat banklarida kreditlardan olingan foizli daromadlarning yalpi daromad hajmidagi salmog'i bilan brutto kreditlarning brutto aktivlar hajmidagi salmog'i o'rtasidagi mutanosiblikni ta'minlash uchun, birinchidan, kreditlardan olingan foizli daromadlarning o'sish sur'ati bilan yalpi daromadning o'sish sur'ati o'rtasidagi mutanosiblikni ta'minlash kerak; ikkinchidan, brutto kreditlar bilan brutto aktivlarning o'sish sur'ati o'rtasidagi mutanosiblikni ta'minlash lozim; uchinchidan, kredit portfelining tahlilini takomillashtirish orqali kreditlarning

1 Jadval muallif tomonidan “Asakabank” aksiyadorlik jamiyatining yillik hisobotlari ma'lumotlari asosida tuzilgan.

2 Jadval muallif tomonidan “Asakabank” AJning moliyaviy hisoboti ma'lumotlari asosida tuzilgan.



daromadliligi va risk darajalari o'rtasidagi mutanosiblikni ta'minlash bilan bog'liq bo'lgan muammolarni aniqlash va ularni hal qilishga qaratilgan chora-tadbirlar majmuini ishlab chiqish zarur.

Kreditlardan olingan foizli daromadlarning o'sish sur'atining kreditlarning o'sish sur'atidan past bo'lishi kreditlarning daromadliligini oshirish nuqtai nazaridan salbiy holat hisoblanadi. Odatda, bunday holat kreditlarning foiz stavkalari pasayganda va muddati o'tgan foizlar bankning balansidan chiqarilganda kuzatiladi. Shu sababli, kreditlar tahlilini takomillashtirish kreditlarning daromadliligini oshirishda muhim o'rin tutadi.

Kreditlardan ko'riladigan zararlarni qoplashga mo'ljallangan zaxira ajratmalari darajasining xalqaro bank amaliyotida umume'tirof etilgan me'yor darajasida bo'lishini ta'minlash uchun, birinchidan, tasniflangan kreditlar tarkibini yaxshilash yo'li bilan shubhali va umidsiz kreditlarning tasniflangan kreditlar hajmidagi salmog'i oshishiga yo'l qo'ymaslik kerak; ikkinchidan, kreditlar bo'yicha zaxira ajratmalari summasining o'sish sur'ati brutto aktivlarning o'sish sur'atidan yuqori bo'lishiga yo'l qo'ymaslik lozim.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 12-maydagi "2020–2025-yillarga mo'ljallangan O'zbekiston Respublikasining bank tizimini isloh qilish strategiyasi to'g'risida"gi PF-5992-son Farmoni. <https://lex.uz/docs/-4811025>
2. Синки Дж. Финансовый менеджмент в коммерческом банке и в индустрии финансовых услуг / пер. с англ. – Москва: Альпина Пабlishер, 2017. – С. 496.
3. Усоскин В.М. Современный коммерческий банк: управление и операции. – Москва: ЛЕНАНД, 2019. – С. 218.
4. Валенцева Н.И. Ценообразование на рынке банковских услуг // Банковское дело. – Москва, 2013. – № 11. – С. 39.
5. Уэрта де Сото Х. Деньги, банковский кредит и экономические циклы / пер. с англ. – Челябинск: Социум, 2008. – 666 с.
6. Литвинов Е.О. Кредитное бремя населения России: вопросы теории и методологии: монография. – Волгоград, 2012. – С. 14.
7. Mian A., Rao K., Sufi A. Household Balance Sheets, Consumption, and the Economic Slump // Quarterly Journal of Economics. – 2013. – Vol. 128, № 4. – P. 1687–1726.
8. Lando D., Skodeberg T. Analyzing Rating Transitions and Rating Drift with Continuous Observations // Journal of Banking and Finance. – 2002. – Vol. 26, № 2–3. – P. 423–444.
9. Wei L., Yuan Z. The Loss Given Default of a Low-Default Portfolio with Weak Contagion // Insurance: Mathematics and Economics. – 2016. – Vol. 66. – P. 113–123.
10. Tasche D. Bayesian Estimation of Probabilities of Default for Low Default Portfolios // Journal of Risk Management in Financial Institutions. – 2013. – Vol. 6, № 3. – P. 302–326.
11. Isakov J.Ya. Xizmat ko'rsatish sohasini rivojlantirishda kredit samaradorligini oshirish: iqtisodiyot fanlari doktori ilmiy darajasini olish uchun taqdim etilgan dissertatsiya avtoreferati. – Toshkent, 2016. – B. 28.

muhandislik

& iqtisodiyot

ijtimoiy-iqtisodiy, innovatsion texnik,
fan va ta'limga oid ilmiy-amaliy jurnal

Ingliz tili muharriri: Feruz Hakimov

Musahhih: Zokir Alibekov

Sahifalovchi va dizayner: Abdurahmon Qurbonov

2026. № 6

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Muhandislik va iqtisodiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelmasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

"Muhandislik va iqtisodiyot" jurnali 26.06.2023-yildan
O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi
Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan
№S-5669245 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.
Litsenziya raqami: №095310.

**Manzilimiz: Toshkent shahri Yunusobod
tumani 15-mavze 19-uy**





+998 93 718 40 07



<https://muhandislik-iqtisodiyot.uz/index.php/journal>



t.me/yait_2100